

SPORT-MILLATNI ULUG‘LASH, YOSH AVLODNI XAR TOMONLAMA TAYYORLASH VA TARBIYALASH OMILI

Doniyorova Kumish Mansur qizi
CHDPU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Har bir millat eng avvalo farzandlarini sog‘lom qilib tarbiyalash, ularning jismonan yetuk bo‘lishi to‘g‘risida qayg‘uradi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati mamlakatimizda jismoniy madaniyat, ommaviy va professional sportni rivojlantirishga doir bir qator: “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun, farmonlar va qarorlar qabul qilindi.

Sport bu tarixan shakllangan inson faoliyati bo‘lib, tanlab olingan biror bir sport turida yuqori natijaga erishish va maxsus musobaqalar sharoitida yuksak yutuqlarni, g‘oliblarni aniqlash va ularni ulug‘lashdan iborat. Sport hozirgi zamon jamiyatining tarkibiga kiritilgan bo‘lib, uning mohiyati xilma-xil va ko‘p qirralidir. Jahon ijtimoiy-siyosiy tizimining elementlari sifatida ular qatoriga sport masalalari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro birlashmalar, sport turlari bo‘yicha xalqaro federatsiyalar, sportning texnik turlari bo‘yicha xalqaro birlashmalar, xalqaro sayyohlik tashkilotlari va boshqalardan iborat bo‘lib, sportni rivojlantirish masalalari BMT da, davlat parlamentlarida muhokama qilinadi.

Ayniqsa, O‘zbek degan nom, O‘zbekiston deya atalmish yurtning sport olamida dong‘i dunyoga doston bo‘ldi, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Mamlakatimiz sportchilari jahon va osiyo chempionatlarida, Olimpiada o‘yinlarida yuksak natijalarga erishib, yurtimiz bayrog‘ini sarbaland etib, Ona-vatan madhiyasining dunyoning turli burchagida baralla yangrashiga erishdilar.

Mamlakatimizda sport sohasiga berilayotgan e‘tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bunday muvaffaqiyatlarning hamda qurayotgan demokratik jamiyatimizga munosib jismoniy va ma‘naviy sog‘lom, hech kimdan kam bo‘lmagan komil avlodni tarbiyalashning muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek xalqi qadimdan hozirgi davrgacha ernshgan barcha yutuqlari - oddiy tosh quroli yordamida ovchilik va dexqonchilik qilishdan tortib madaniyat, san‘at, fan va texnika hamda sport sohasidagi yuksak ko‘rsatkichlari tarixiy, milliy qadriyatlar hisoblanadi. Qadriyatlar orasida xalqimizning jismoniy kamolot va go‘zallik ramzi hordiq chiqarish, dam olish hamda jismoniy chiniqtirish rolinn o‘ynagan milliy sport turlarining ahamiyati beqiyosdir.

Sport insonning tabiiy ehtiyoji sifatida asrlar osha oddiylikdan murakkab turlarga tomon rivojlanmoqda, mukamallashib bormoqda. Bu tarixiy jarayondir. Insonning

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

fazoni zabt qilishi nafaqat ilm-fanning, balki sportning ham ahamiyati kattaligini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Sportning o'tmishi, buguni va kelajagi o'rtasidaga o'zaro uyg'unlikni ta'minlash tarixiy milliy qadriyatlarni tadqiq va tahlil etishni taqozo etadi.

Hozirgi zamon sporti insonni nafaqat katta jismoniy kuch sohibi, shu bilan birga mo'jizakor ma'naviy siymo ekanligini ham namoyon etmoqda. Insonning jismoniy kamoloti, ma'naviyati, yetukligi, ruhiy yuksakligi sport bilan bog'liq jarayondir.

Sport bilan shug'ullanish ijtimoiy maqsadga egadir, bular: unumli mehnatga va Vatanni himoya qilishga tayyorlik; jismoniy, irodaviy hamda ahlokiy fazilatlarni har tomonlama rivojlantirish, to'laqonli bo'sh vaqtni tashkil qilish, jamoa faoliyat malakalarini hosil qilish uchun shart-sharoitni ta'minlashdir.

Mamlakatimizda sport sohasiga berilayotgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bunday muvaffaqiyatlarning hamda qurayotgan demokratik jamiyatimizga munosib jismoniy va ma'naviy sog'lom, hech kimdan kam bo'lmagan komil avlodni tarbiyalashning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017. (766) G'oziyeva Z. Ijtimoiy psixologiyada uyg'unlik. Monografiya, ISBN: 978-9943-4199-9-5, Toshkent, "NOSHIR" — 2014. — 115 b.
2. Бабаев, Анваржон. Sportchilarning psixologik va emotsional holatini mo'tadillashtirishning uslubiy asoslari / Анваржон Бабаев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 2 (397). — С. 396-398. — URL: <https://moluch.ru/archive/397/87907/> (дата обращения: 17.04.2024).
3. Муратова, КГПИ Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.
4. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.
5. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

6. Mukhtarovna, Yuldasheva Jamilakhan, Melikhujayeva Noilakhan, and Mirzarahimova Muhtasarkhan. "THE PECULIARITY OF TAKING GYMNASTICS CLASSES WITH STUDENT GIRLS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.03 (2023): 47-51.

7. Umarov, Abdusamat Abdumalikovich, and Zulxumor Urinboyevna Umarova. "Talaba-yoshlarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy va harakatli o'yinlarning o'rni." Scientific progress 4.1 (2023): 260-265.

8. Umarov, A. A., and L. I. Kutyanin. "New defoliants: search, properties, application." Chemistry (2000).

